

# **Uzbekistan Airways JATA-2022 sayyohlik ko'rgazmasida ishtirok etmoqda**

**2022 23 September**

“Uzbekistan Airways” AJ 22-25-sentabr kunlari Yaponiyaning Tokio shahrida bo‘lib o’tadigan “JATA Tourism Expo Japan 2022” xalqaro sayyohlik ko’rgazmasida ishtirok etmoqda. JATA-2022 ko’rgazmasi aviakompaniya uchun Yaponiya turoperatorlari va boshqa xalqaro turizm sektorlari bilan B2B uchrashuvlarida ishtirok etish imkoniyatidir.

Eslatib o’tamiz, 2022-yil 18-avgustdan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent – Tokio – Toshkent yo’nalishi bo‘yicha to‘g’ridan-to‘g’ri aviaqatnovlarni tikladi, ular hozirgi kunda haftasiga bir marta — payshanba kunlari amalga oshirilmoqda.